“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=367

2026-yil
5-son
may
ISSN 3093-8546



Xalqaro huquqda adolatli va teng huquqli rejimning sharhlanishi masalasi

Abbos Abdujalilov,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq va ommaviy huquq fanlari” kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: a.abdujalilov@uwed.uz

Аннотация. ushbu maqolaning asosiy maqsadi adolatli va teng huquqli rejimning turli huquqiy sharhlanishi va ushbu talqinlarning davlatlar yoki investorlar manfaatlariga xizmat qilishi darajasini aniqlashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, maqolada avvalo bir qator xalqaro va ikki tomonlama investitsiya bitimlarida mazkur rejimning tasnifi bo‘yicha yondashuvlar ko‘rib chiqiladi.

Калит сўзлар. xalqaro investitsiya bitimlari (XIB), ikki tomonlama investitsiya bitimlari (IIB), adolatli va teng huquqli rejim (ATH), minimal himoya standarti (MHS), milliy rejim (MR), to‘liq himoya va xavfsizlik (THX), arbitraj amaliyoti.

Аннотация. основной целью настоящей статьи является определение того, какая из существующих правовых интерпретаций стандарта справедливого и равноправного режима (CPP) наиболее эффективно отвечает интересам государств и инвесторов. В этой связи в статье прежде всего рассматривается общая классификация стандарта CPP, закреплённая в ряде международных и двусторонних инвестиционных соглашений.

Ключевые слова. Международные инвестиционные соглашения, двусторонние инвестиционные соглашения, режим справедливого и равноправного отношения, минимальный стандарт обращения, национальный режим, полная защита и безопасность, арбитражная практика.

Annotation. The main purpose of this article is to determine which interpretation of the Fair and Equitable Treatment (FET) standard most effectively serves the interests of States and investors among the various existing legal approaches. From this perspective, the article first examines the general classification of the FET standard as reflected in various international and bilateral investment agreements.

Keywords. International Investment Agreements, Bilateral Investment Treaties, Fair and Equitable Treatment, Minimum Standard of Treatment, National Treatment, Full Protection and Security, Arbitral Practice.

Adolatli va teng huquqli rejim (keyingi o‘rinlarda – ATH deb yuritiladi) ikki tomonlama va ko‘p tomonlama investitsiya shartnomalarining aksariyatida mustahkamlangan huquqiy himoya standarti hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, qariyb 500 ta ikki tomonlama investitsiya shartnomasi tahlili natijasida ularning taxminan 90 foizida ATH rejim to‘g‘risidagi bandlar mavjudligi aniqlangan [1].

Rivojlanish va savdo konferensiyasi (UNCTAD)ning rasmiy veb-sahifasidagi so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, 2026-yil yanvar oyi holatida jami 2859 ta IIB mavjud bo‘lib, shundan 2229 tasi kuchga kirgan, ularning 2000 dan ortig‘ida ATH bandlari mavjudligi keltirilgan [2].

Yuqoridagi shartnomalarda keltirilgan ATHga oid qoidalar mazmuni va tuzilishidagi muhim o‘xshashliklarga qaramay, shartnomalarda ushbu rejim aynan bir xil mazmunga ega emas. Shu sababli, nizolarni hal qilish mexanizmlari biron bir shartnomada keltirilgan ATH qoidalarini ushbu shartnoma matni va mazmunini tahlil qilish asosida sharhlashga majbur bo‘ladi, sababi har bir shartnomadagi ATHni belgilovchi normalarning o‘ziga xosligi ushbu shartnoma doirasida davlat zimmasiga yuklanadigan majburiyatlar ko‘lamini belgilaydi.

Shu bois, ATH sharhi ayrim nizolarda turlicha natijalarga olib kelgan va bu holat nizolarni hal qilish mexanizmlari ATHning doirasini aniqlashda jiddiy masalalarni keltirib chiqargan. ATH uchraydigan bandlarda qo‘llaniladigan aniq ifodalar muhim ahamiyat kasb etishi hamda muayyan huquqiy oqibatlarga olib kelishi masalasi ko‘plab olimlar tomonidan e’tirof etilgan. Xususan, Dolzer va Shroyer (Christoph Schreuer) o‘z tadqiqotlarida ATHga nisbatan umumiy yondashuv qo‘llanilishiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish lozimligini ta’kidlab, mazkur standartning mazmuni va qo‘llanishi aynan shartnoma matnida ishlatilgan iboralarga bevosita bog‘liqligini qayd etadilar [3]. Ularning fikricha, har bir ATH bandi 1969-yilda qabul qilingan “Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risida”gi Vena konvensiyasining 31-32-moddalariga muvofiq, uning muzokaralar jarayoni, mazmuni, maqsadi va vazifalari, zarur hollarda shakllanish omillarini hisobga olgan holda sharhlanishi joiz deb hisoblaydilar.

Shu bilan birga, Shil (Stephan W. Schill), Nyukomb (Andrew Newcombe) hamda Luis (Paradell Lluis) ATHning turli talqini uning mazmunini yagona ekanligiga putur yetkazmaydi, deb hisoblaydilar. Ularning ta’kidlashicha shartnomalarda farqli ifodalar mavjud bo‘lsa-da, ATHning umumiy va yagona konsepsiyasi saqlanib qoladi [4].

Bu borada shartnomani qo‘llash amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, investitsiya bitimlarida yagona yondashuv mavjud emasligi sababli

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

arbitraj tribunalari ham ATHni bir xil tarzda talqin qilmagan. Bunday qarorlarga munosabat sifatida davlatlar ATH qoidalarini qayta ko‘rib chiqmoqda va yanada aniqroq tarzda shartnomalarga kiritmoqda. ATHga nisbatan mustaqil hamda xalqaro huquqdagi odat normalari sifatida shakllangan minimal himoya standarti (keyingi o‘rinlarda – MHS deb yuritiladi) bilan bog‘langan rejim sifatida qarashlar mavjud. Ayniqsa, oldingi avlod IIBda ATH qo‘shimcha sharhsiz, “himoyalovchi” standart sifatida ifodalanmagan. Bunday yondashuv arbitraj tribunallari uchun shartnoma holatlarini keng sharhlash imkonini yaratadi, chunki adolat tushunchasi keng bo‘lib, turli me’yorlarni o‘z ichiga olishi mumkin. Bu boradagi so‘nggi amaliyot esa ATHni bevosita minimal himoya standarti bilan bog‘lovchi shartnoma bandlarining ko‘payib borayotganini ko‘rsatmoqda. Bu holat ko‘pincha arbitraj amaliyotida ATHning juda keng talqin qilinishiga javob sifatida izohlanadi.

So‘nggi yillarda xalqaro investitsiya shartnomalarida ATHga nisbatan yangi yondashuvlar paydo bo‘ldi. Masalan, Yevropa Ittifoqining Kanada bilan tuzilgan Kengaytirilgan iqtisodiy va savdo bitimi (CETA), shuningdek Yaponiya, Singapur va Vetnam bilan tuzilgan erkin savdo bitimlari ATHning elementlarini aniq sanab o‘tuvchi “yopiq ro‘yxat” shaklidagi qoidalardan iborat. Shu bilan birga, Trans-Tinch okeani hamkorligi bo‘yicha keng qamrovli va progressiv kelishuv (CPTPP), Amerika Qo‘shma Shtatlari, Meksika va Kanada o‘rtasidagi kelishuv (USMCA) va Mintaqaviy keng qamrovli iqtisodiy sheriklik bitimi (RCEP) kabi ko‘plab erkin savdo bitimlari ATHni xalqaro odat huquqidagi minimal himoya standarti sifatida ifodalashni davom ettirmoqda.

Bu borada turlicha yondashuvlar bor. Masalan, xalqaro investitsiya bitimlarida ATHning turli ko‘rinishlarini tasniflashda huquqshunos olim Salakyus (Jeswald Salacuse) uni ikki turga ajratadi. Birinchi tasnif: ATH faqat xalqaro odat huquqidagi minimal himoya standartiga havola qiladi. Ikkinchi tasnifga ko‘ra ATH umumiy xalqaro huquqdan mustaqil bo‘lgan qo‘shimcha standart hisoblanadi [5].

Shu bilan birga Ien Lerd (Ian A. Laird) esa ATHning shartnomalarda berilishining uch xil ko‘rinishini ajratadi:

(a) odatiy qoida sifatida – bunda ATHning o‘zi xalqaro odat huquqi normasi sifatida qaraladi.

(b) inklyuziv qoida sifatida – bunda ATH xalqaro huquq tarkibida bo‘lib, mustaqil standart emas;

(c) qo‘shimcha qoida – ATH xalqaro huquq talab qiladigan munosabatdan tashqari qo‘shimcha himoyani nazarda tutadi [6]. Lerdning ta’kidlashicha, da’vo faqat ATHga asoslangan hollarda arbitraj tribunalari yuqoridagi uch qarashni amalda turlicha qo‘llamagan. Boshqacha aytganda, qaysi sharh qo‘llanishidan qat’iy nazar, ATHning moddiy mazmuni masalasi baribir dolzarbligicha qoladi.

Yana bir tadqiqotchi Marshal (F.Marshall) esa investitsiya bitimlarida ATHni 7 toifaga ajratadi:

(a) ATHni xalqaro huquqqa yoki uning mazmunini belgilovchi boshqa mezonlarga havola qilmasdan mustahkamlovchi bitimlar;

(b) ATHni MR yoki EQR bilan bog‘lovchi bitimlar;

(c) ATHni asossiz yoki kamsituvchi choralarni taqiqlash bilan birlashtiruvchi bitimlar;

(d) ATHni xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq ta’minlashni talab qiluvchi bitimlar;

(e) ATHni xalqaro huquqqa muvofiq talab qilish bilan birga, uning ayrim elementlarini aniq ko‘rsatib beruvchi bitimlar;

(f) ATHni qabul qiluvchi davlatning milliy qonunchiligiga bog‘lovchi bitimlar;

(g) ayrim yangi avlod IIB va Erkin savdo bitimlarida ATH aniq belgilangan doirada ifodalanadi va u xalqaro odat huquqidagi minimal himoya standartiga muvofiq qo‘llanadi [7]. Ba’zi bitimlarda ATH minimal himoya standartining bir qismi ekani va qo‘shimcha moddiy huquqlar yaratmasligi ham ochiq ko‘rsatiladi.

Islom olamining huquqiy yondashuvlari doirasida ATH standarti uchta asosiy sharhlash asosida tasniflanadi:

(a) bunda standart boshqa tushunchalar bilan bog‘lanib, uning doirasi cheklanadi;

(b) ATH hech qanday xalqaro huquq, Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risidagi konvensiya yoki boshqa xalqaro huquq normalariga havola qilinmaydi;

(c) ATH qo‘shimcha majburiyatlar, masalan, to‘liq himoya va xavfsizlik, sudlovdan mahrum etmaslik, kamsitmaslik, EQR majburiyati kabi normalar bilan birlashtiriladi.

Bundan tashqari, 2007-yilda BMTning Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi ikki tomonlama investitsiya shartnomalarida ATH bandlarining 7 xil talqinini aniqlagan. Umuman olganda, ATHga nisbatan uch turdagi xalqaro investitsiya shartnomalarini ajratish mumkin. Birinchidan, ATH keltirilmagan shartnomalar mavjud bo‘lib, bu eski avlod investitsiyalarni o‘zaro rag‘batlantirish va himoya qilish to‘g‘risidagi ikki tomonlama bitimlarga xos amaliyot. Ikkinchidan, ATH faqat tavsiyaviy yoki deklarativ tarzda tilga olingan bitimlar mavjud. Uchinchidan esa, ATH majburiy huquqiy norma sifatida mustahkamlangan bitimlar keng tarqalgan [8].

Investitsiyalarni himoya qilishga oid xalqaro bitimlar ATH nisbatan uch toifaga bo‘linadi. Birinchisi, ATHga umuman murojaat qilinmagan shartnomalar mavjud bo‘lib, ular investitsiya amaliyotining dastlabki davrlarini aks ettiradi. Bunday shartnomalar ikki tomonlama investitsiya bitimlari orasida uchraydi va bu holat standartga qarshi bo‘lishdan ko‘ra, o‘sha davrda umumiy va barqaror modelning hali shakllanmagani bilan izohlanadi [9]. Masalan, Germaniya Federativ Respublikasining 1960-yilga qadar tuzilgan IIB, hatto keyingi davrga oid 1977-yildagi Yaponiya va Misr o‘rtasida tuzilgan IIB bunga misol bo‘la oladi.

Xuddi shunday holat xalqaro investitsiyaga taalluqli ayrim umumiy belgilarni o‘z ichiga olgan ko‘p tomonlama bitimlar, masalan, Tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv (GATT), Xizmatlar savdosi bo‘yicha bosh kelishuv (GATS) hamda Investitsiya choralarining savdo bilan bog‘liq jihatlari to‘g‘risidagi kelishuv (TRIMS)da ham kuzatiladi. Bunday xalqaro shartnomalarda investitsiyalarning huquqiy rejimi ATH, EQR va boshqa bitimlarga havola qilish yo‘li bilan yoki ATHning xalqaro odat huquqi sifatida tan olingan standartlarga asoslanishi mumkin. Qabul qiluvchi davlatlar tomonidan bunday majburiyatlar mavjud bo‘lmagan taqdirda esa, investorlar uchun bir xil huquqiy kafolatlar beriladi deb aytish qiyin.

Ikkinchisi, ishontiruvchi qoidalardan iborat bo‘lib, ular qabul qiluvchi davlatlar zimmasiga bevosita majburiyat yuklamaydi, balki ATHga faqat bitim muqaddimasida ishora qiladi yoki xorijiy investorlarni bunday tarzda himoya qilish mumkinligi haqidagi niyatni ifodalaydi. IIB orasida Ozarbayjon va Pokiston o‘rtasidagi IIB muqaddimasi bunga misol bo‘la oladi. Ko‘p tomonlama bitimlarda, masalan, Gavana Xartiyasining 11-moddasi 2-qismida “adolatli va teng munosabatni ta’minlash” bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan [10]. Xuddi shuningdek, Investitsiyalarni kafolatlash bo‘yicha ko‘p tomonlama agentlik (MIGA) konvensiyasining 12-moddasida investitsiyani kafolatlash shartlari qatorida “qabul qiluvchi davlatdagi investitsiya sharoitlari, jumladan, adolatli va teng munosabat hamda investitsiyaning huquqiy himoyasi mavjudligi” qayd etilgan [11]. Biroq bu yerda ham ko‘rishimiz mumkinki 12-moddaning (d) bandi xorijiy kapitalga nisbatan munosabat masalasida davlatlarga majburiyat sifatida emas, balki ularni o‘z milliy tartibga solish tizimini shakllantirishga chorlovchi tavsiyaviy xususiyatga ega.

Uchinchisi, ATHga doir majburiy tusdagi havolalar xalqaro investitsiya bitimlarining aksariyatida uchraydi. Bunda farqlilik nafaqat ATHning matndagi ifodalanishida, balki u keltirilgan izohda ham namoyon bo‘ladi. Masalan, ikki tomonlama investitsiya bitimlarida ATHning ifodalanishiga kelsak, Eron va Pokiston o‘rtasidagi kelishuv faqatgina “adolatli munosabat” (“fair treatment”) iborasidan foydalangan [12]. Xuddi shuningdek, Norvegiya va Litva o‘rtasidagi kelishuvda “adolatli va oqilona munosabat” (“equitable and reasonable treatment”) atamasi qo‘llanilgan [13].

IIBda uchraydigan tafovutlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ATH ba’zan boshqa standartlardan alohida tarzda mustaqil norma sifatida keltiriladi, ba’zan esa boshqa tamoyillar bilan birgalikda bitta band doirasida mustahkamlanadi. Masalan, 2011- yilgi Hindiston va Nepal o‘rtasidagi bitim investitsiyalarga “har doim adolatli va teng munosabat ko‘rsatilishi lozim”ligini belgilaydi [14]. Bu holatda ATH hech qanday qo‘shimcha standartlar yoki havolalarsiz, mustaqil standart sifatida ifodalangan.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Biroq boshqa ko‘plab bitimlarda ATH boshqa himoya standartlari yoki investitsiya kafolatlari bilan birga qo‘llanadi. Jumladan, eng qulay rejimi, milliy rejim, o‘zboshimchalik va kamsituvchi munosabatdan tiyilish, shuningdek to‘liq himoya va xavfsizlik kafolati bilan uyg‘unlashtiriladi. Masalan, 2015-yilgi Daniya va Makedoniya o‘rtasidaga bitimda [15] ATH Eng qulay rejim va Milliy rejim bo‘lgan himoya standartlari bilan birgalikda mustahkamlangan. Xuddi shuningdek, 2017-yilgi Vengriya va Tojikiston o‘rtasidagi bitimda [16] ATH to‘liq himoya va xavfsizlik kafolati bilan qo‘shib ifodalanganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Yana boshqa bitimlarda, masalan, 2019 yilgi Gonkong maxsus ma’muriy hududi va Birlashgan Arab Amirliklari o‘rtasidagi bitimda ATH to‘liq himoya va xavfsizlik kafolati bilan yonma-yon qo‘llanib, shu bilan birga asossiz va kamsituvchi munosabatdan tiyilish majburiyatini ham nazarda tutadi [17]. Shu bois, bunday bandlar va ATHning turli shakllarda ifodalanishi ko‘rsatadiki, ma’lum darajada ushbu standartlarning qo‘llanish doiralari bir-biriga tutashib ketadi. Biroq bu ularning barchasi bitta band doirasida yagona majburiyatni anglatadi, degani emas. Aksincha, bunday yondashuv ko‘proq ifoda uslubi masalasi bo‘lib, mazmuniy jihatdan ularning har biri alohida ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, ayrim xalqaro investitsiya bitimlari ATHni umumiy xalqaro huquqqa (ya’ni, “Xalqaro Sud statuti”ning 38-moddasida nazarda tutilgan xalqaro huquqning barcha manbalarini) yoki “Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risida”gi konvensiya (ya’ni, davlatlar amaliyoti va opinio juris talablariga asoslangan holda)ga havola qilgan holda mustahkamlaydi.

Ikki tomonlama investitsiya bitimlari doirasida, professor Jek Kou (Jack J. Coe) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, BITlarning qariyb 12 foizi u yoki bu shaklda ATHni xalqaro huquq bilan bog‘laydi. Bunga misol sifatida 2015-yildagi Xitoy va Turkiya o‘rtasidagi kelishuvni keltirish mumkin. Ushbu bitimda quyidagicha norma belgilangan: “Har bir ahdlashuvchi tomon investorlarining investitsiyalari har doim xalqaro huquq tamoyillariga muvofiq ravishda ATH bilan himoyalanadi”. Mazkur yondashuv ATHning mazmuni va qo‘llanish doirasini xalqaro huquqning umumiy tamoyillari, xususan, xalqaro odat huquqi bilan uyg‘un holda talqin qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Qizig‘i shundaki, ayrim investitsiya shartnomalari yuqorida tilga olingan yondashuvlarni yanada cheklovchi pozitsiyani egallab, ATH mezbon davlatning ichki qonunchiligiga moslangan. Masalan, ushbu yondashuv 2008-yilgi Hindiston va Senegal o‘rtasidagi bitimda uchraydi [18]. Unda quyidagicha qoida belgilangan: “Chet el investitsiyalariga nisbatan mezbon davlatning qonunlari va qoidalariga muvofiq ravishda har doim adolatli va teng munosabatda bo‘linadi ...”. Mazkur ATH sharhi xalqaro huquq doirasida shakllangan ATH rejimidan keskin farq qiladi, bu yerda investorni himoya qilish mezbon davlatning milliy qonunlariga bog‘lab qo‘yilgan. Biroq, xalqaro huquqda ATH odatda davlatning

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

ichki qonunlari bilan cheklanib qolmasdan, balki xalqaro standartlarga ham mos bo‘lishi kerak. Agar ATH faqat “ichki qonunlarga muvofiq” deb belgilansa, u holda bu haqiqiy, mustaqil xalqaro himoya standarti bo‘la olmaydi. Chunki bu holatda davlatning o‘zi qabul qilgan ichki qoidalar asosida baho beriladi, xalqaro mezonlar esa chetda qolishi mumkin.

ATHning turli sharhlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu standart investitsiyalarni himoya qilish bo‘yicha bitimlarning aksariyatida mavjud. Bir tomondan, ATHning investitsiyalarni himoya qilishdagi ahamiyati borasida ma’lum darajadagi umumiy kelishuv mavjud bo‘lib, boshqa tomondan esa, ushbu standartning turlicha ifodalanishi talab etiladigan va aniq himoya darajasi masalasida bahs-munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda.

Ko‘plab sharhlar orasidan, ATHning mustaqil shakli hamda xalqaro huquqqa havola qiluvchi ATH eng bahsli hisoblanadi. Uning birinchisi, IIB asosida ish ko‘ruvchi arbitrajlar amaliyotida keng muhokamalarga sabab bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchisi, sobiq NAFTA davlatlarining arbitraj amaliyoti va unga javoban ko‘rgan choralarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlash lozimki, IIBlarning aksariyatida ATH himoya standarti xalqaro huquqqa havola qilingan bo‘lsa-da, u xalqaro odat huquqi doirasidagi minimal himoya standarti bilan tenglashtirilmaydi.

Adolatli va teng huquqli rejim mustaqil standart sifatida

ATH arbitraj tribunalari tomonidan, ayniqsa ikki tomonlama investitsiya bitimlari doirasida mustaqil standart sifatida e’tirof etilgan. Aksariyat olimlar va arbitraj sudlarining fikricha, bunday e’tirof etilishning asosiy sababi ATH shartnomaning matnida xalqaro odat huquqiga hech qanday havola yoki shart mavjud emasligidir.

Masalan, Shroyer va Dolzer ushbu fikrni tasdiqlab, shunday deydi: agar shartnomada taraflar “Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risida”gi konvensiyaga murojaat qilishni istaganida, ular buni boshqa ibora qo‘llash o‘rniga, aynan shunday aniq atama bilan ifodalagan bo‘lar edi. Bundan tashqari, matnni sharhlash nuqtayi nazaridan ular shuni ta’kidlaydilarki, shartnomada xalqaro odat huquqidagi “minimal himoya standarti” tushunchasiga “adolatli va teng munosabat” iborasi orqali murojaat qilingan. Shu bois, har qanday holatda ham majburiy bo‘lgan xalqaro odat huquqi qoidalarini qayta bayon qilishning zarurati yo‘q. Shroyer va Dolzerning ushbu qarashlari, shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o‘rtasida minimal himoya standartining umuman mavjudligi borasidagi bahsli munozaralarga ham ishora qiladi [19].

Arbitraj amaliyotida ham ko‘plab tribunallar ATH qoidalarini mustaqil standart sifatida talqin qilganlar. Boshqacha aytganda, ular “adolatli” va “teng” atamalarining oddiy, lug‘aviy ma’nosiga tayanib, javobgarlik kelib chiqish chegarasini quyi darajada belgilaganlar. Bu esa davlatlarning tartibga soluvchi choralarini ATH buzilishi sifatida baholash xavfini kuchaytirgan. Masalan, “Micula vs

Ruminiya” ishida tribunal ATHni xalqaro minimal standartidan farq qiluvchi mustaqil standart sifatida talqin etishga da’vogarlarning yondashuviga javobgarning e’tirozi yo‘qligini qayd etgan [20]. Bundan tashqari, tribunal standart mazmunini aniqlashda avvalo “adolatli va teng” atamalarining oddiy ma’nosiga murojaat qilish lozimligini ta’kidlagan. Xuddi shuningdek, “Teinver vs Argentina” ishida tribunal ATHni MHSdan ajratib, shartnomada ushbu atama qo‘llanilganligi sababli, u faqat xalqaro huquqdagi minimal himoya standarti bilan cheklanmasligini qayd etgan [21]. Yuqoridagi arbitraj qarorlari shuni ko‘rsatadiki, agar ATH investitsiya shartnomalarida mustaqil shaklda ifodalangan bo‘lsa, tribunallar uni odatda avtonom tarzda va “Xalqaro shartnomalar huquqi to‘g‘risida”gi konvensiya doirasidagi MHSdan ajratgan holda sharhlaganlar.

Agar ATH standarti xalqaro huquqqa havola qilish orqali bog‘langan bo‘lsa, arbitraj tribunalari uch xil yondashuvni qo‘llagan:

(a) ATHni MHS bilan tenglashtirish;

(b) ATHni mustaqil standart sifatida talqin qilish;

(c) ushbu ikki standart o‘rtasidagi munosabat bo‘yicha qaror chiqarmaslik.

Masalan, “CMS” ishida tribunal birinchi yondashuv asosida, ATH xalqaro huquqdagi minimal himoya standarti va uning xalqaro odat huquqi doirasidagi evolyutsiyasidan farq qilmasligini ta’kidlagan. “Azurix” ishida esa tribunal ikkinchi yondashuvni qo‘llab, shartnoma matni ATH hamda To‘liq himoya va xavfsizlik standartini xalqaro huquqda talab etilganidan yuqori darajada sharhlash imkonini berishini qayd etgan. Tribunalga ko‘ra, ushbu bandning maqsadi xalqaro huquqda talab etiladigan minimal himoyadan ham kam bo‘lgan himoyani oldini olish uchun “yuqori chegarani” cheklash emas “pastki chegarani” belgilash muhim hisoblanadi. “BG vs Argentina” ishida esa tribunal uchinchi yondashuvni qo‘llab, Argentina tomonidan ko‘rilgan choralar xalqaro minimal standartdan past ekanini aniqlagan va shu sababli Argentina va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi bitim mustaqil va yanada kengroq himoya standartini nazarda tutadimi yoki yo‘qmi, degan masalani ko‘rib chiqishni zarur deb topmagan.

Yuqoridagi arbitraj amaliyoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, investitsiya shartnomalarida ATH mustaqil standart shaklida ifodalangan hollarda, aksariyat tribunallar uni mustaqil talqin qilganlar. Agar ATH “xalqaro huquqqa muvofiq” yoki “xalqaro huquqdan kam bo‘lmagan darajada” kabi iboralar bilan birga qo‘llanilsa, tribunallar uni minimal himoya standarti bilan tenglashtirgan tarzda mustaqil qo‘llagan yoki ushbu munosabat yuzasidan aniq pozitsiya bildirmagan.

ATHning minimal himoya standarti sifatida qo‘llanilishi

Huquqni qo‘llash amaliyotidan kelib chiqqan holda muhokama qilinadigan asosiy tadqiqot masalasi, ATH xalqaro odat huquqidagi minimal himoya standarti bilan bog‘liqmi yoki bog‘liq bo‘lmagan holda qo‘llanilishini aniqlashdan iborat. Bu masala xalqaro investitsiya huquqi uchun muhim ahamiyatga ega, chunki u

tomonlarning xalqaro javobgarlik doirasini belgilaydi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining 1967-yilgi “Chet el mulkini himoya qilish to‘g‘risida”gi konvensiya loyihasiga bergan sharhi ATHni MHS bilan bog‘lagan dastlabki hujjatlardan biridir. Ba’zi olimlarning fikricha, ATH dastlab MHSni anglatish uchun joriy etilgan. Biroq, boshqa tadqiqotchilar xalqaro tashkilot sharhi rivojlangan davlatlarning qarashlarini aks ettirganini va rivojlanayotgan davlatlarning yondashuvini hisobga olmaganini ta’kidlaydilar.

Tomasning fikricha, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining sharhi ATH standarti bevosita ko‘rsatilmagan bo‘lsa ham, u xalqaro huquqning umumiy tamoyilini anglatadi [22]. Xuddi shuningdek, Roman Picherakning fikricha, 1950-1960-yillar davomida ATH “xalqaro huquqda mavjud bo‘lgan minimal himoya standarti sifatida qo‘llanishi ko‘zda tutilgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas” [23].

NAFTA amaliyoti ham ATHni MHS bilan bog‘lashga uringan yaqqol misollardan biridir. Biroq, bu yerda ham tribunallar MHSni “evolyutsion” tarzda talqin qilib, uni kengaytirishga harakat qilgan. Natijada, ATH va MHS o‘rtasidagi munosabat yana bahsli masalaga aylangan.

IIBlar mazmunida esa, aksariyat hollarda ATH MHS bilan bog‘lanmagan va tribunallar uni mustaqil standart sifatida qo‘llagan. Shu sababli, ATHning MHSga nisbatan aniq huquqiy maqomi hanuzgacha yagona xulosaga kelmagan masala bo‘lib qolmoqda.

ATH standartining zamonaviy talqinda qo‘llanishi

So‘nggi yillarda davlatlar an’anaviy ATH qoidalaridan voz kechib bormoqda va ATH mazmunini aniqroq belgilashga harakat qilmoqda. Bunda ikki asosiy yondashuv shakllanmoqda.

Birinchi yondashuv, arbitraj amaliyoti orqali shakllangan bo‘lib, ATH MHS va sudlovdan mahrum etmaslik majburiyati bilan bog‘lanadi. Ushbu model bir qator zamonaviy IIB va Erkin savdo bitimlarida qo‘llanilmoqda. Biroq, bu yondashuv MHS tushunchasini va belgilarini ochib bermaganligi sababli ma’lum darajada noaniqliklarga sabab bo‘lmoqda.

Ikkinchi yondashuv “yopiq ro‘yxat” yondashuvi bo‘lib, unda ATHining buzilishi hisoblanadigan holatlar aniq sanab o‘tiladi. Yevropa Ittifoqi va Kanada o‘rtasidagi iqtisodiy va savdo kelishuvi, Yevropa Ittifoqi va Singapur, Yevropa Ittifoqi va Vetnam o‘rtasida tuzilgan bitimlar ushbu modelning yorqin namunasidir. Bu yondashuv ATHni qo‘llashda aniqlik va huquqiy prognoz qilishni ta’minlaydi.

Tadqiqot o‘rganishlari hamda sharhlash mazmunidan kelib chiqib, Xalqaro huquqda ATHning qo‘llanishi borasida yagona yondashuvning mavjud emasligini, amaldagi yondashuvlar esa bir xil emas degan xulosaga olib keladi. Ayrim bitimlarda AHT umuman mavjud emas, ba’zilarida u tavsiyaviy xarakterga ega, aksariyatida esa majburiy norma sifatida mustahkamlangan.

Mazkur maqolada AHTning ikki eng bahsli bo‘lgan mustaqil standart sifatidagi ATH va MHS qatorida qo‘llaniladigan huquqiy rejim tahlil qilindi. AHTni turli ifodalanishi uni sharhlashda qiyinchiliklarni keltirib chiqargan bo‘lsa, MHSga bog‘langan AHTning o‘zi hamon aniq sharhga ega emas. So‘nggi amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ATHni aniq elementlar orqali belgilovchi “yopiq ro‘yxat” yondashuvi davlatlar va investorlar manfaatlari muvozanatini ta’minlashda eng maqbul yechim bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda, ATH xalqaro investitsiya huquqining markaziy, dinamik hamda bahsli himoya standarti bo‘lib qolmoqda, biroq uning mazmuni va chegaralari shartnoma matni hamda xalqaro huquq tamoyillariga asoslangan sharh orqali aniqlanishi muhim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. J.Coe Jr., Remarks, 96 aM. Soc. int’l l. PRoc. 17-8 (2002).

2. UNCTAD, International Investment Agreements Navigator 2026.01.24; https://investmentpolicy.unctad.org/international-investment-agreements

3. C. Schreuer & R. Dolzer, Principles of International Investment Law 121 (2008).

4. Stephan W. Schill, The Multilateralization of International Investment Law Cambridge University Press. August 2009, ISBN: 9780521762366 / Andrew Newcombe and Paradell Lluis, Law and Practice of Investment Treaties: Standards of Treatment, 2009 Kluwer Law International BV, The Netherland. ISBN 978-90-411-2351-0©

5. Salacuse J. The Law of Investment Treaties. – Oxford: Oxford University Press, 2010. 222–227-bet.

6. Laird I. Betrayal, Shock and Outrage – Recent Developments in NAFTA Article 1105 // NAFTA Investment Law and Arbitration: Past Issues, Current Practice, Future Prospects / ed. by T. Weiler. – Leiden; Boston: Martinus Nijhoff Publishers, 2004. 51–54-bet.

7. Marshall, F., 2007. Fair and Equitable Treatment in International Investment Agreements, International Institute for Sustainable Development. Canada. Retrieved from https://coilink.org/20.500.12592/9lds610 on 04 Feb 2026. COI: 20.500.12592/9lds610.

8. UNCTAD, Bilateral investment treaties 1995–2006: Trends in investment rulemaking 30-3 (2007)

9. Vasciannie S. The Fair and Equitable Treatment Standard in International Investment Law and Practice // British Yearbook of International Law. – 1999. – Vol. 70. – P. 99–114.

10. Havana Charter for the Establishment of an International Trade Organization 1948, art. 11(2).

11. Multilateral Investment Guarantee Agency Convention, art. 12(2)

12. 1995 Islamic Republic of Iran-Pakistan BIT, art. 4(1).

13. 1992 Norway Lithuania BIT, art. III.

14. 2011 India-Nepal BIT

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

15. 2015 Denmark-Macedonia, The former Yugoslav Republic BIT, art. 3 (1)
16. 2017 Hungry-Tajikistan BIT
17. 2019 Hong Kong SAR-United Arab Emirates BIT, art. 3 (2)
18. 2008 India-Senegal BIT, art. 3(2).
19. Schreuer & Dolzer, supra note 9, at 124. Yana qarang Dolzer & Stevens, supra note 1, at 60.
20. Ioan Micula et al. v. Romania, ICSID Case No. ARB/05/20, Final Award, ¶ 503 (Dec. 11, 2013).
21. Teinver S.A.et al. v. The Argentina Republic, ICSID Case No. ARB/09/01, Award, 666 (July 21, 2017).
22. J. Thomas, Reflections on Article 1105 of NAFTA: History, State Practice and the Influence of Commentators, 17 ICSID Rev. 48 (2002).
23. J.Picherack, The Expanding Scope of the Fair and Equitable Treatment Standard: Have Recent Tribunals Gone Too Far? 9 J. World inv. & trade 264 (2008).